

## O‘QUVCHI – YOSHLAR ORASIDA MUSIQA SAN’ATINI O‘QITISHDA O‘QITUVCHILARNING O‘ZIGA XOS METODIKASI.

*Osiyo Xalqaro Universiteti magistri  
Yunusova Shahnoza Baxtiyorovna.*

**Annotatsiya:** O‘qituvchi o‘z diqqatini o‘quvchi shaxsining qabul qilish xususiyatlariga, diqqati faolligiga, darsning didaktik tomoniga, o‘quvchining ma’lumotlilik darajasiga, qoniqish doirasiga, musiqa o‘qitishning usullarini va optimal metodlarini tanlashga va boshqalarga jalb qilmog‘i lozimdir.

**Kalit so‘zlar:** Cholg‘uchilik, musiqa san’ati, savodxonlik, nafosat, ruhiy ta’sir, qo‘sish aytish, musiqa o‘qituvchisi, pedagogik ta’sir

O‘quvchilarning musiqiy madaniyatini shakllanishi, musiqiy faoliyatini ko‘chayishi, o‘qishga ijodiy munosabatini shakllanishi, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini o‘sishida o‘qituvchilarning o‘z muhitini yaxshi bilib ish ko‘rishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun o‘qituvchi oldida turgan asosiy psixologik vazifalar o‘quvchilarga tabiiy ravishda o‘qishga ehtiyoj hosil qilish, ongi ravishda faol harakatni rivojlantirish hisoblanadi. Musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi har bir sinf o‘quvchilarining yosh psixologik xususiyatlarini, shuningdek, sinfdagi har bir o‘quvchining o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini bajarish jarayonida tahlil qilishi va umumlashtirish asosida belgilash lozim.

O‘quvchilarda inson manaviyatining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa madaniyatini shakllantirish musiqa tarbiyaning bosh maqsadi hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish musiqa o‘qituvchisi va uning kasbiy mahoratiga bevosita bog‘liqdir. Aslida esa, o‘qituvchi o‘z diqqatini o‘quvchi shaxsining qabul qilish xususiyatlariga, diqqat faolligiga, darsning didaktik tomoniga, o‘quvchining ma’lumotlilik darajasiga qoniqish doirasiga, musiqa o‘qitishning usullarini va optimal metodlarini tanlashga va boshqalarga jalb qilmog‘i lozim lozimdir.

Musiqa estetik tarbiyaning eng asosiy qismlaridan bo‘lib, u bolalarni musiqaga bo‘lgan muhabbatini, qiziqishini musiqa san’atiga bo‘lgan mehrini o‘zida namoyon qiladi. Insonga estetik zavqni bag‘ishlaydi, fikrlashni, manaviyaini oshiradi. Musiqa odamning ichki xissiyotlarini o‘zida aks ettirib beruvchi vosita hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ‘ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch ‘ asarida ‘ Musiqa san’at navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga ko‘proq va kuchliroq ta’sir ko‘rsatmoqda ‘ Demak, musiqa va ta’lim-tarbiya kishidagi insoniy fazilatlarni rivojlantirib, ruhiy va yuksalishga da’vat etadigan, insonning ichki olamini boyitadigan aloqa vositasi sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Musiqa muallimi ilmiy tafakkur egasi, ilg‘or tajribalar shaydosi, izlanuvchan va ijodkor bo‘lib, musiqa o‘qitishning yangi shakl va usullarini kashf etishga intilmog‘i lozim. U misiqa ta’lim-tarbiyasi mazmunini boshqa fanlar mazmuni va kundalik hayot bilan bog‘lab, boyitib borishi lozim. Izlanuvchan va ijodkor muallimning ilg‘or tajribasi va kashf etgan yangi usullari maktabdagagi musiqa ta’lim-tarbiyani doimiy ravishda takomillashtirib rivojlantirishning asosiy tayanchi va ilhom manbaidir. Bilimdon va tajribali musiqa muallimi san’at ziyolisi sifatida maktabda musiqiy-ma’rifiy ishlarning sarkoridir.

Musiqani tinglash, qo‘sish qaytish, raqs tushish, oddiy cholg‘ularda chalish orqali badiiy idrok etish, musiqadan olgan taassurotlari va bilganlari haqida gapirib berish, asarni badiiy baholash, musiqa ijodkorligi malaka ko‘nikmalarini rivojlantirish amaliyotlari vositasiad o‘quvchilarda musiqaga havas va badiiy ehtiros uyg‘otishadi.

Musiqa Ta’limida davlat ta’lim standartlari asosida yangi ta’lim mazmuni o‘quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta’minlaydi. O‘quvchilarning musiqiy-estetik rivojlanishlari uchun o‘qituvchi o‘zining ish faoliyatida sidqidildan tayyorlanib, darslarni yuksak metodik darajada o‘tilishini ta’minlashi lozim. Zero, dars o‘qituvchidan katta irodaviy kuch, izlanish, hozirjavoblik hamda turli pedagogik vaziyatlarga tezda munosabat bildirishini talab etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Musiqa darslari boshqa fanlar darslaridan o‘zining badiyligi, qiziqarliligi va bolalarda ko‘proq ijodiy zavq, emotsional tuyg‘ular va obrazli kechinmalar uyg‘otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojlanishiga katta ijodiy ta’sir ko‘rsatadi. “ Musiqa tarbiyasiz bolalarga aqliy tarbiyani yetarli darajada bajarib bo‘lmaydi ” Shuning uchun musiqa darslari, eng avvalo, tarbiya darsidir. Badiiy tarbiya uning mantiqiy mazmunidir.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. “ Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.
2. T. Ma’niviyat, 2008, 176-b.
3. Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. T., 2009.
4. Karimova D., Yakubova Sh. “ Bolalar musiqa asarlari ustida ishslash ” Toshkent-2016;
5. Umumta’lim maktablarining musiqa darsliklari